XALQARO INVESTITSIYA HUQUQIDA INVESTITSIYA TUSHUNCHASI. INVESTITSIYA FAOLIYATINING AHAMIYATI

Sherikbayaeva Mushtariy Erkin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti xususiy huquq fakulteti 3-bosqich talabasi.

erkinovnam97@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada xalqaro investitsiya huquqida investitsiya tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, xususan, investitsiya tushunchasining milliy qonunchilikda, iqtisodiy va huquqiy adabiyotlardagi mazmuni, mohiyati shuningdek, investitsiya hamda kapital tushunchalarining o'zaro farqi yoritib berilgan. Ushbu maqolada, globallashuv jarayonida investitsiyalarning o'rni, milliy qonunchilikda investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solishning ahamiyati o'rganiladi. Bundan tashqari, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish maqsadida, mamlakatimizga to'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati va chet ellik investorlarga qonunchilikda mavjud bo'lgan kafolatlar hamda imtiyozlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Investitsiyalar, investor, investitsiya foliyait, investitsion faoliyati subyektlari, investitsiya shartnomasi, investitsiya majburiyati, chet ellik investorlar, mahalliy investor, chet el investitsiyalari, to'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalari.

АННОТАЦИЯ: В данной статье определяется понятие инвестиции в международном инвестиционном праве, в частности, содержание и значение понятия инвестиции в национальном законодательстве, экономической и юридической литературе, а также взаимное различие понятий инвестиции и капитала. В данной статье рассматривается роль инвестиций в процессе глобализации, значение правового регулирования инвестиционной деятельности в национальном законодательстве. Кроме того, в целях развития экономической и социальной сфер будут обсуждены важность привлечения прямых иностранных инвестиций в нашу страну и гарантии и льготы, предоставляемые иностранным инвесторам в законодательстве.

Ключевые слова: инвестиции, инвестор, инвестиционная деятельность, субъекты инвестиционной деятельности, инвестиционный договор, инвестиционное обязательство, иностранные инвесторы, отечественный инвестор, иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции.

ABSTRACT: This article defines the concept of investment in international investment law, in particular, the content and meaning of the concept of investment in national legislation, economic and legal literature, as well as the mutual difference between the concepts of investment and capital. This article examines the role of investments in the process of globalization, the importance of legal regulation of investment activities in national legislation. In addition, in order to develop the economic and social spheres, the importance of attracting direct foreign investments to our country and the guarantees and privileges available to foreign investors in the legislation will be discussed.

Key words:investment, investor, investment activity, subjects of investment activity, investment agreement, investment obligation, foreign investors, domestic investor, foreign investment, foreign direct investment.

KIRISH: Bilamizki har bir davlat jahon hamjamiyatida iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishga intiladi va shu sababli har bir mustaqil davlat o'z iqtisodiyotni rivojlantirishning turli xil usullaridan foydalanadi, bulardan biri investitsiyalarni jalb qilish desak mubolag'a bo'lmaydi. Bizning mamlakatimiz ham mustaqillikka erishgandan so'ng iqtisodiyotni shakillantirish va rivojlantirishni asosiy maqsadlardan biri sifatida belgiladi va ushbu maqsad yo'lida rivojlanib bormoqda. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga nazar solar ekanmiz, ularda investitsion faoliyatni amalga oshirishning turli xil usullari takomillashtirilganligiga guvoh bo'lamiz. Xususan mamlakatimizda ham ushbu faoliyatni tartibga soluvchi, xalqaro investitsiya huquqi sohasini samarali rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu huquq sohasining asosiy maqsadi investitsiyalar va invetorlarni himoya qilish, investitsiya faoliyatni rivojlantirish va uni huquqiy tartibga solishdan iborat. Bu kabi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishida xalqaro investitsiya huquqi subyektlarining o'rni katta ahmiyatga ega. Xususan xalqaro investitsiya huquqining "subyektlari" deganda – xorijiy investitsiyalani kiritish ularni rivojlantirish va himoya qilish, ular bilan bog'liq nizolarni hal qilish bo'yicha munosabatlarda muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'la oladigan, hamda ushbu majburiyatlar bo'yicha javob bera oladigan ishtirokchilar tushuniladi. Jumladan quyidagilar xalqaro investitya huquqi subyektlari deb e'tirof etiladi:

- yuridik shaxslar;
- jismoniy shaxslar;
- davlat;
- xalqaro tashkilotlar;
- xorijiy tijorat tashkilotlari;
- TMK va boshqa tadbirkorlik birlashmalari.

"Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 598-sonli qonuning 9-moddasiga ko'ra investitsiya faoliyati subyektlari sifatida quyidagilar keltirib o'tilgan:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar — rezidentlari;
- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- chet davlatlar, chet davlatlarning ma'muriy yoki hududiy organlari;
- xalqaro tashkilotlar;
- chet ellik yuridik shaxslar va fuqarolar,
- fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Xalqaro investitsiya subyeklari sifatida bevosita ishtirok etuvchi yuridik shaxslar kiritilayotgan investitsiyalarning maqsadiga ko'ra, qonun bilan mustaxkamlangan kafolatlardan foydalanish huquqiga ega hisoblanadi, ular investitsiya faoliyatida investor maqomiga egadirlar. Xususan "investor" - bu foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga o'zining mablag'larini yoki qarz mablag'larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyektidir. Demak bir so'z bilan aytganda investor bu – tadbirkordir, chunki u foyda ko'rish maqsadida, tavakalchilik asosida, qonun normalariga amal qilgan holda, o'z mulkiy javobgarligi ostida tadbirkorlik faoliyati bilan shu'gullanadi. Lekin unga aynan investor maqomi berilganligi shu bilan izohlanadiki, davlat strategik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lum bir sohani rivojlantirish uchun investor bilan investitsiya shartnomasida belgilangan shartlar asosida yohud davlat tomonidan investorga boshqa tadbirkorlik subyektlariga qaraganda qonunchilikda

alohida kafolatlar, hamda imtiyozlarni beradi, o'z navbatida investor ham qabul qiluvchi davlatning muayyan bir sohasini rivojlantirish uchun o'z kapitalini joylashtirib ma'lum bir maqsadda faoliyat olib boradi. Bundan ko'rnib turibdiki, investitsiya faoliyatida ham davlat ham investor manfaatdor hisoblanadi, shu sababli davlat milliy qonunchilikda investorlarni bir qancha imtiyozlar va kafolatlar bilan ta'minlaydi. Takidlash joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirilishiga katta e'tibor qaratilib, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonun yo'li bilan keng ko'lamdagi imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi belgilandi.

Xususan "Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 598-sonli qonuning 19-moddasiga asosan agar O'zbekiston Respublikasining keyingi qonunchilik investitsiya qilish shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, investitsiya qilish sanasida amalda bo'lgan qonunchilik chet el investorlariga nisbatan investitsiya qilish paytidan e'tiboran o'n yil mobaynida qo'llanilanilishi belgilangan, e'tiborli jihati shundaki ushbu qoida faqat chel el investorlariga tadbiq etilishi belgilangan. "Tadbirkorlik erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi 328-O'RQning 18^1-moddasiga asosan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartib-taomilining murakkablashtirilishini va tadbirkorlik faoliyati subyektlari zimmasiga yangi majburiyatlar yuklatilishini nazarda tutadigan, shuningdek ularning javobgarligiga oid yangi choralarni belgilaydigan qonunchilik hujjatlari rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kamida uch oydan keyin kuchga kirishi belgilangan bo'lib bu qoida o'z faoliyatini yuridik shaxs tashkil etib yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan

ro'yxatdan o'tib faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlariga yohud mahalliy investorlarga nisbatan qo'llaniladi.

Milliy qonunchiligimizda to'g'ridan to'g'ri hukumat kafolatlarisiz kiritilgan chet el investitsiyalariga nisbatan, bir qanch imtiyozlar amal qiladi. Jumladan, "To'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimch chora – tadbirlar to'g'risidag" gi 4434-sonli president farmoniga asosan prezident qarori bilan belgilanadigan muddatga kiritilgan to'g'ridan to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari hajmiga qarab, yer solig'i, mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod etish tarzidagi soliq imtiyozlari berilgan. Ushbu farmonga ko'ra qiymati 50 million AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish budjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilishi qayd etilgan. Bundan tashqari "To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3594-sonli president farmoniga ko'ra To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda tashkil etilgan hamda ushbu farmoda ko'rsatilgan iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni ishlab chiqarishga (xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashtirilgan korxonalarga quyidagi to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiya hajmlarida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda alohida soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutilgan:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha — 3 yil muddatga;
- 3 million AQSh dollaridan ortiq va 10 million AQSh dollarigacha - 5 yil muddatga
- 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda — 7 yil muddatga.

Yuqorida ko'rinib turibdiki chet el investorlarini jalb qilish va iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida milliy qonunchiligimizda alohida kafolatlar va imtiyozlar joriy etilgan.

Hamma faoliyat ham investitsiya faoliyati hisoblanmaydi. Investitsiya deb e'tirof etishimiz uchun quyidagi to'rtta shartlarning bari bir vaqtda mujassam bo'lishi kerak, xususan:

- foyda olish maqsad qilinishi;
- Investitsiya riski bo'lishi;
- kapital bir davlatdan ikkinchi davlatga kiritilishi;
- investitsiya shartnomasi kamida bir yilga tuzilishi kerak.

Investitsiya faoliyatining boshqa tadbirkorlik faoliyatidan farqini izohlash uchun avallo xalqaro investitsiya huquqida "investitsiya" tushunchasining mazmun, mohiyatiga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Ilmiy huquqiy va ilmiy iqtisodiy adabiyotlarda davlatlar qonunchilik tajribasida va xalqaro normalarda investitsiyalar tushunchasiga bir qancha ta'riflar berilgan bo'lib, ularda investitsiya tushunchasi quyidagicha izohlangan.

"Investitsiyalar" ingilis tilidan olingan bo'lib (investments) tarjima qilinganida "kapital qo'yish" ma'nosini anglatadi, bundan anglashiladiki "investitsiyalar" va "kapital qo'yish" so'zlarini sinonim so'zlar deb xisoblash mumkin.

"Investitsiyalash investitsiyaviy nematlar yordamida bugungi ehtiyojlarni kelajakda kutilayotgan qoniqishlarga almashtirish aktini o'zida ifodalaydi"[1].

"Investitsiyalar yoki kapital bu, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan davrida olingan va foydalanilmagan daromad qismi, hamda ishlab chiqarish uchun qaytadan amalga oshirilgan qo'yilma sanaladi"[2].

Investitsiyalar nafaqat mamlakat iqtisodiyotining, balki xorijda ham foyda olish maqsadida sanoat, qishloq xo'jaligi transport va boshqa sohalarda amalga oshirilgan qo'yilmalardir. Investitsiya - tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tarafning va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, yuridik, jismoniy shaxs yoki davlatning iqtisodiy jihatdan foyda olish maqsadida qonunda nazarda tutilgan tadbirkorlik faoliyatining har qanday obyektlariga investorning moliyaviy, moddiy va intelektual boyliklarini jalb qilishi hisolanadi. Investitsiyalar – bu ishlab chiqarishda va uni rivojlantirish maqsadida amalga oshiradigan qo'yilmadir.

Investitsiya tushunchasiga olimlar o'z izohlarida bir qancha tushuntirishlar berganlar, quyida shu haqida so'z yuritiladi:

1 Cherevik E.D. Investisionniy proses v razvivayushixsya stranax M.1988-S.9.

2 2.Masse P.Kriterii i metodi optimalnogo opredeleniya kapitallovlojeniy . – M. 1971-S.27. 1 Cherevik E.D. Investisionniy proses v razvivayushixsya stranax M.1988-S.9.

S.P.Morozovning ta'kidlashiga ko'ra "investitsiyalar bu, foyda (daromad) olish, foydali ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklarni, shuningdek, ularga nisbatan huquqlarni tadbirkorlik obyektiga va boshqa faoliyat turlariga jalb qilish tushunladi"[3].

V.A. Bublikning fikriga asosan, "investitsiyalar bu - har qanday mulk (shu jumadan, intelektual) huquqining obyekti, shuningdek, pul qiymatiga ega bo'lgan va tadbirkorlik axamiyatiga ega intelektual qimmatlikdir"[4] .

M.C. Yeteeva, “investitsiyalar - bu sanoat, qishloq xo’jaligi, transport va mamlakat ichkarisida ham, uning tashqarisida ham, boshqa iqtisodiyot soxasiga foyda keltirish maqsadida mablag’ kiritish”[5] deb baholaydi.

Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib ta’kilash joizki, "Investitsiya" deyilganda, kelajakda samarali natija olish yoki ijtimoiy foydaga erishish uchun, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va iqtisodiyotning turli tarmoqlariga, investorlar tomonidan kiritiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushuniladi.

Investitsiyalar kelajakda ko’proq daromad olish maqsadida hozirgi kunda mavjud mol-mulkdan vos kechish hisoblanadi. Investitsiya tushunchasiga berilgan bir nechta tariflarda o’zaro ularni bog’lab turuvchi umumiy “maqsadga muvofiq yo’naltirilganlik” belgisi mavjud bo’lib, bu investitsiyalarni boshqa obyektlar orasidan jumladan, ishlab chiqarishdan, biznesdan farqli o’laroq maqsadli ishlatilishi belgisiga ko’ra ajratilganida namoyon bo’ladi. Demak investitsiyalar bu turli - xil mulkchilik moddiy, nomoddiy boyliklar hamda ularga bo’lgan huquqlarni va intelektual mulk obyektlariga bo’lgan huquqlarni iqtisodiy - ijtimoiy samaradorlikka erishish uchun muomalaga kiritish hamda yo'naltirishdir.

[3] Sokol P.V. Investisionniy dogovor kak grajdanskaya –pravovaya forma investirovaniya jilishnohgo stroitelstva. -Myu .2005-S.6.

[4] Bublik V.A. Grajdansko-pravovoye regulirovaniye vneshekonomicheskoy deyate’v Rossiyskoy federasii problemi teorii zakonadatelstva i pravoprimeniya . Yekaterinburg. Izdatel’stvo YrGYUA. 1999-S.11.

[5] Sherqul Shodmonov, Ubaydulla G’afurov. Iqtisodiyot nazariyasi. «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005. 447 bet

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus huquqiy asos bo’lib xizmat qiladi. Ushbu qonunga ko’ra, investitsiyalar tushunchasi ikki mezonda talqin qilinadi, bular umumiy ma’noda investitsiyalar va chet el investitsiyalari tushunchalari bo’lib, ular quyidagicha izohlanadi. "Investitsiyalar" - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo’lib ular quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- mablag‘larni, shu jumladan pul mablag‘larini, maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni;
- ko‘char va ko‘chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);
- intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan, texnik hujjatlar, ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni.

Chet el investitsiyalari deganda, chet ellik investor o’zining moddiy va nomoddiy boyliklarini hamda ularga bo‘lgan huquqlarni, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni, shuningdek reinvestitsiyalarni - qabul qiluvchi davlatning ijtimoiy, ilmiy

sohalarini hamda tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish maqsadida kiritilishi tushuniladi. Demak investitsiyalarga berilgan tushuncha umumiy mazmunga ega xisoblanib, chet el investitsiyalari faqatgina investitsiya faoliyati subyektining huquq ma'qomini alohidalashtiradi xolos yani chel el investitsiyalari deganda, chet el fuqarolari, yuridik shaxslari yojud xorijiy tashkilotlar hisoblangan investorlarning, investitsiyalarni boshqa davlatga kiritishini tushunish lozim. Bunda, davlat va chet ellik investor o'rtasida tuziladigan, o'zaro huquq va majburiyatlarni vujudga keltiruvchi investitsiya shartnomasiga asosan, chet ellik investorga, qabul qiluvchi davlat tomonidan, bir-qancha qulayliklar, imtiyozlar, kafolatlar beriladi, o'z navbatida chet ellik investor shartnomada belgilangan maqsadlarga erishish uchun malum bir majburiyatlarni amalga oshirishi kerak bo'ladi. Lekin, har doim ham davlat chet el investorlarini ma'lum bir kafolatlar bilan taminlashni o'z zimmasiga olmaydi. Shu sababli qonunda to'g'ridan – to'g'ri chel el investitsiyalari tushunchasi berilgan bo'lib, buning asl mohiyati shundaki, chet ellik investorlar hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiya faoliyatini amalga oshiradi. Milliy qonunchiligimizga asosan, to'g'ridan –to'g'ri chet el investitsiyalariga soliq, bojxona munosabatlarida bir qancha imtiyozlar berilgan bo'lib, jumladan shu haqda yuqorida qonunchiligimizda qanday imtiyozlar berilganlini yoritib o'tgan edim. Bugungi kunda chet el investitsiyalarini jalb qilish mamlakat iqtisodiyoti uchun juda muhim ahamiyatga ega, bunda davlat o'z iqtisodiyotini, ta'limni, sanoatni va boshqa sohalarni o'z mablag'lari hisobiga emas balki boshqa davlatdan kirib kelayotgan chet ellik investorning mablag'lari hisobiga rivojlantiradi.

Iqtisodiyot nazariyasida ham "investitsiya" va "kapital qo'yilma" terminlari ma'nodosh ya'ni sinonim so'zlar emasligini ko'p bora ta'kidlab o'tilmoqda. Investitsiyalar kapital qo'yilmaga nisbatan ancha keng ma'noga ega tushuncha ekanligi isbotlangan. Xususan ko'pchilik kapital tushunchasini tarixiy tushuncha deb qarab, uning kapitalizmga xosligini isbotlaydi va kapitalni o'z egasiga qo'shimcha qiymat keltiruvchi qiymat, o'z-o'zidan ko'payuvchi, o'suvchi qiymat deb hisoblaydi. Ayrim g'arb iqtisodchilari ham, masalan, J.Klark, L.Valras, I.Fisherlar kapitalga daromad keltiruvchi, foyda keltiruvchi, foiz keltiruvchi qiymat deb qaraydilar. Qator g'arb iqtisodchilarining, jumladan D.Xayman, P.Xeyne, E.Dolon, J.Robinson, R.Dornbush va boshqalarning fikrini keltirib va ularni umumlashtirib, V.D.Kamayev o'zining rahbarligida yozilgan darsligida «haqiqatan ham — kapital o'zidan-o'zi ko'payuvchi qiymat»[10] deb yozadi.

Iqtisodiyot nazariyasida investitsiyalar tushunchasiga iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagicha tarif berilgan:

"Investitsiyalar — asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi. Pul mablag'lari ko'rinishidagi investitsiya nominal investitsiya, ana shu pul mablag'lariga sotib olish mumkin bo'lgan investitsion resurslar real investitsiya deyiladi"[9]. Demak investitsiyalar yalpi sarflarning asosiy tarkibiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalar darajasi jamiyat milliy daromadi hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, milliy iqtisodiyotdagi ko'plab mutanosibliklar investisiya hajmining o'sish sur'atiga bog'liq bo'ladi. Investitsiyalar mamlakat miqyosida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish obyektlari qurish, stanok, uskuna va shu kabi uzoq muddatli foydalaniladigan asosiy kapitallarni sotib olish, ishga tushirish bilan bog'liq sarflarni bildiradi. Investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining ochiq bo'lishiga yordam beradi. Ochiq iqtisodiyot deganda shunday makroiqtisodiyot tushuniladiki, unda yaratilgan mahsulotning bir qismi mamlakat ichki iste'moliga, qolgan qismi xorijga eksport qilinadi.

Milliy iqtisodiyot ochiqligining ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- YAMM va ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda eksport kvotasi;
- iste’mol tarkibidagi importning ulushi;
- xorijiy investitsiyalarning barcha investitsiyalar umumiy hajmidagi ulushi.

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki investitsiyalar iqtisodiy kategoriga sifatida iqtisodiyotning rivojlanishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Investitsiyalar - aynan aniq bir belgilangan davrda iste'mol qilinmagan va kelajakda iste'mol qilinishi mumkin bo’lgan iqtisodiyotdagi kapital qo'yilmalarning ko'payishini ta'minlashga ko'maklashuvchi yalpi ichki mahsulotning bir qismi hisoblanadi. Ishlab chiqarish nazariyasi va makroiqtisodiyotda esa investitsiyalar yangi kapitalni yaratish, shakllantirish hamda mavjudlarini ko'paytirish jarayoni hisoblanadi. Investitsiya keng ma'noda yuritilib, bu investitsion jarayondagi hudud, region yoki mamlakatdagi moliya tizimini evolyusion jarayonining hozirgi holati bilan izohlanadi. Investitsiya so'zi Yevropaning rivojlangan mamlakatlari (AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Yaponiya)da fond bozorlariga ko'proq e'tibor qaratilib, investitsiyalash qimmatli qog'ozlar yordamida amalga oshiriladi degan tushunchalari mavjud. Boshqacha so'z bilan aytilganda portfel investitsiyasi so'z bilan yuritiladi. Investitsiyalar nafaqat mamlakat iqtisodiyotining, balki xorijda ham foyda olish maqsadida sanoat, qishloq xo’jaligi, transport va boshqa sohalarda amalga oshirilgan qo’yilma hisoblanadi. Investitsiyalar – tadbirkorlik subyektlarining va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlatning iqtisodiy foyda yohud ijtimoiy samara olish maqsadida qonunda ta’qiqlanmagan tadbirkorlik faoliyatining har qanday obyektlariga o’zining moliyaviy, moddiy va intelektual boyliklarini jalb qilishi sanaladi.

Xulosa: Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo’lsak, investitsiyalar mamlakatning iqtisodiy ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu bois ham har bir davlat o’z hududida chet el investitsiyalarning kirib kelishini hamda samarali faoliyat olib borishini ta’minlash maqsadida, qonunchilikda ularga bir qancha imtiyozlar hamda kafolatlarni beradi, va shu orqali iqtisodiy, ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga erishadi. Qonunchiligimizda chet el investitsiyalariga nisbatan imtiyozlarning va kafolatlarning ko’payishi o’z navbatida chet el kapitalining kirib kelishini ko’paytiradi bu esa mamlakat rivojiga samarali ta’sir ko’rsatadi. "Investitsiya" deganda kelajakda samarali natija olish yoki ijtimoiy foydaga erishish uchun, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va iqtisodiyotning turli tarmoqlariga, investorlar tomonidan kiritiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushuniladi. Investitsiya tushunchasiga ta’rif berar ekanmiz "investitsiya" va "kapital qo'yilma" terminlari sinonim so'zlar emasligiga amin bo’lamiz, kapital – bu o‘z egasiga qo‘shimcha qiymat keltiruvchi qiymat, o‘z-o‘zidan ko‘payuvchi, o'suvchi qiymat hisoblanib, investitsiya tushunchasiga qaraganda ancha kengroq ma’noni anglatadi. Investitsiyalar kelajakda ko’proq daromad olish maqsadida hozirgi kunda mavjud mol-mulkdan vos kechish hisoblanadi. Investitsiyalarning “maqsadga muvofiq yo’naltirilganlik” belgisi mavjud bo’lib, bu investitsiyalarni boshqa obyektlar orasidan jumladan, ishlab chiqarishdan, biznesdan farqli o’laroq, maqsadli ishlatilishi belgisiga ko’ra ajratilganida namoyon bo’ladi. Demak investitsiyalar bu turli - xil mulkchilik moddiy, nomoddiy boyliklar hamda ularga bo’lgan huquqlarni va intelektual mulk obyektlariga bo’lgan huquqlarni iqtisodiy - ijtimoiy samaradorlikka erishish uchun muomalaga kiritish hamda yo'naltirishdir.

REFERENCES:

1) Yevteyeva M.S. Mejdunarodniye dvuxstoronniye investisionnoye soglasheniya. ждународные двусторонние инвестиционые соглошения. –M Mejdunarodniye otnosheniya 2002.

2) Sherqul shodmonov, Ubaydulla G'afurov. Iqtisodiyot nazariyasi. «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005.

3) Bublik V.A. Grajdansko-pravovoye regulirovaniye vneshekonomicheskoy_deyate'v Rossiyskoy federasii problemi teorii zakonadatelstva i pravoprimeniya . Yekaterinburg. Izdatel'stvo YrGYUA. 1999-S.11.

4) Sokol P.V. Investisionniy dogovor kak grajdanskaya –pravovaya forma investirovaniya jilishnohgo stroitelstva. -Myu .2005-S.6.

5) Xaydarov N.X iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari . 2003.

6) Yevteyeva M.S.Mejdunarodniye dvuxstoronniye investisionniye soglasheniya.-M 2002-S.35.

7) Masse P. Kriterii i metidi optimal'nogo opredeleniya kapitallovlojeniy. 2011.

8) Cherevik Ye.D. Investisionniy proses v razvivayushixsya strsnax. 2008.